

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

“QO‘SHIN VA UNING BO‘LINMALARINI” NOMDAGI LEKSEMALAR TARIXIDAN

Gafurova Surayyo Ulug‘bekovna

Farg‘ona davlat universiteti, dotsent (DSc).

e-mail: sgafurova@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0422-4303>

Annotatsiya.

Barcha sinfiy jamiyatlar tarixi davlatlar o‘rtasidagi urushlar, bosqinchilik va talonchiliklar tarixidan iboratdir. Buni O‘rta Osiyo xalqlarining ko‘p asrlik tarixi misolida yaqqol ko‘rish mumkin. O‘tmishda O‘rta Osiyo xalqlari (o‘zbek, tojik, turkman, qirg‘iz, qoraqalpoq va b.)ning o‘zaro hamda tashqi dushmanga olib borgan qonli urushlarini aks ettiruvchi bir qancha yozma manbalar mavjud. Ana shunday manbalardan ko‘pi XIX asrda yaratilgan bo‘lib, ularda harbiy ish va uning turli sohalariga oid yuzlab so‘z va terminlar uchraydi. Ushbu maqolada ularning tarixi va ma‘nolarini qisqacha bayon qilmoqchimiz.

Kalit so‘zlar: harbiy termin, so‘z, yozma yodgorliklar, qurol, harbiy unvon, qo‘shin, armiya, urush va uning turlari, so‘z ma‘nosi, tarixiy davr, tarixiy hodisa, sana.

К ИСТОРИИ ЛЕКСЕМ, ОБОЗНАЧАЮЩИХ “ВОЙСКО И ЕГО СТРУКТУРНЫЕ ПОДРАЗДЕЛЕНИЯ”

Гафурова Сурайё Улугбековна

Ферганский государственный университет, доцент (DSc).

Аннотация.

История всех классовых обществ состоит из истории войн, вторжений и грабежей между государствами. Это хорошо видно на примере многовековой истории народов Средней Азии. В прошлом имеется несколько письменных источников, отражающих кровопролитные войны народов Средней Азии (узбекских, таджикских, туркменских, кыргызских, каракалпакских и др.). Большинство этих источников созданы в XIX веке и содержат сотни слов и терминов, связанных с военной работой и различными ее отраслями. В этой статье кратко опишем их историю и значение.

Ключевые слова: военный термин, слово, письменные памятники, оружие, воинское звание, армия, войско, война и ее виды, значение слова, исторический период, историческое событие, дата.

ON THE HISTORY OF LEXEMES DENOTING “THE ARMY AND ITS STRUCTURAL UNITS”

Gafurova Surayyo Ulug‘bekovna

Fergana State University, Associate Professor (DSc).

Abstract.

The history of all class societies consists of the history of wars, invasions and robberies between states. This can be clearly seen in the example of the centuries-old history of the peoples of Central Asia. In the past, there are several written sources that reflect the bloody wars of the peoples of Central Asia (Uzbek, Tajik, Turkmen, Kyrgyz, Karakalpak, etc.) Most of these sources were created in the 19th century, and they contain hundreds of words and terms related to military work and its various branches. In this article, we will briefly describe their history and meaning.

Keywords: military term, word, written monuments, weapon, military title, army, army, war and its types, word meaning, historical period, historical event, date.

Kirish. XIX asrga oid yozma yodgorliklar tilida qo‘llangan harbiy terminlar tematik jihatdan quyidagi guruhlarga ajraladi: 1) urush va uning turlarini ifodalovchi so‘z va terminlar; 2) qo‘shin va uning qismlarini ifodalovchi terminlar; 3) harbiy tartib, strategiya va taktikaga doir so‘z va terminlar; 4) harbiy qurol-aslaha va asboblarga doir terminlar; 5) harbiy unvon va amallarni ifodalovchi terminlar. Ushbu maqolada qo‘shin va uning qismlarini ifodalovchi terminlar tarixiga to‘xtalib o‘tilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature Review). Ma‘lumki, Qo‘qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro amirligida ma‘lum miqdordagina muntazam armiya bo‘lgan, xolos. Zaruriyat tug‘ilgan paytda esa maxsus kishilar yuborilib, shahar va qishloqlardan yangi kuch — qo‘shimcha askar to‘plangan. Davlat ixtiyoridagi armiyani qo‘shun, cherik, lashkar, navkar va askar deb ataganlar. Urush vaqtida to‘plangan askarlarni esa qora cherik deb ataganlar. Doimiy armiyada xizmat qilish (navkarlik)ning muddati cheksiz bo‘lgan [1; 112].

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Qadimgi turkiy tilga xos cherik so'zi XIX asr manbalarida keng iste'molda bo'lgan. Masalan: Cherik xayli cherka bog'lasunlar (BV, 319 b). Jamshid cheriki muqobilasida yurdi (GD, 32 b). Qaro cherik yotg'on qo'shg'a bordilar (TS, 109 b).

Qo'shun so'zi eski o'zbek tilida cherik so'ziga nisbatan keyinroq qo'llangan bo'lib, ko'proq nasrda uchraydi. Masalan: Borch qo'shun bila kemaga minib (GD, 184 b). XIX asr manbalarida arabcha va forscha askar, lashkar, sipoh, navkar, sarboz so'zlari ham ancha faol qo'llangan. Masalan: Qoraqalpoq orasig'a borib, ul toyifaning cherikin va Orol qo'ng'irotning lashkarin bey va kadxudolarig'a kishi yubordi (GD, 45 a). Borsa asokir to'blarni daryo kanorig'a eltib (GD, 196 b). Mahmud Niyoz yasovulboshi chovdar cheriki bila va Xudoynazar mahram Ko'klon sipohi bila va Xudoynazar devonbegi Beshariq navkari bila va Muhammadkarim yuzboshi ota lashkari bila Dashti Qipchoqqa borib (ShI, 196 b). Yig'ib sarboz sartibu sarhang (A, 10).

Askarlar piyoda va otliq bo'lgan. Otliq askarlarni suvori deb ataganlar. Masalan: Keladur orqadin o'n ming suvori (A, 18). Piyodau suvora birla hamdast (A, 37). Jangchi ma'nosida ba'zan muboriz so'zi qo'llangan. Masalan: Muborizlar boshining boshi erdi (A, 41).

Ma'lumki, XIX asr o'rtalaridan boshlab o'zbek tiliga ruscha-internatsional so'z va terminlar ham kirib kela boshlaydi. Bular ichida soldot, sollot, polyuz so'zlari ham uchraydi. Masalan: O'rus podshohi ko'b soldotni Buxoro sari ravona qildi (TS, 483 a). Ul ovonda o'rus lashkari ko'b soldot va asbobu olot bila Toshkentdin harakat ko'rguzub Sirdaryodin o'tti (ShI, 60 a). Ming sollot tayyor turdilar (MT, 273 a). Polyuzlar bu so'zni eshitib, xurram va xushvaqt bo'ldilar. Ma'lum bo'lsinkim, polyuz deb bir mamlakat podshohining tujjor va o'zga musofiru sayyorning ahvolidin xabardor bo'lmoq uchun tayin etib qo'yg'on kishini ayturlar (GD, 252 b).

Askarlarning urush vaqtida maxsus jangovar tartibda saf tortishini yasov yoki yasol deyilgan. Masalan: Har tarafdin cherik yasovig'a oro berib (GD, 69 a). Muzdin o'tub, orqasin daryo bila qal'ag'a qaratib yasov yasadi (TS, 196 b). Yasov yasab, tog'dek haybat bila orom ko'rguzdilar (ShI, 114 a). Yasab yog'i maydoni ichra yasol, mazora hududida changal misol (FI, 129 b). Bizningcha, yasov turkcha bo'lib, yasol mo'g'ulcha bo'lishi mumkin. Ya'ni har ikkala so'z yasa fe'liga o'zbekcha (turkcha) -v hamda mo'g'ulcha -l affiksining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Mo'g'ul tilida -l affiksi orqali fe'l o'zaklaridan ot yasaladi [2; 30-31].

Ba'zan yuqoridagi ma'noda arabcha saf so'zi qo'llanadi. Masalan: Saflarni orasta qildilar (Qul. FSh, 42).

Qo'shinning turli qismlarini ifodalashda qo'sh, qo'l, dasta, burong'or, juvong'or terminlari qo'llangan.

Qo'sh so'zi turkcha-o'zbekcha bo'lib, armiya, stavka, batalon, lager, otryad degan ma'nolarni anglatadi [3; 635]. Masalan: Qo'shdin chiqg'on kishi uch kun, to'rt kun taraddudi bisyor bila qaytib o'z qo'shin topa olmas erdi (FI, 206 a). Shu ma'noda ba'zan ko'ch so'zi ham qo'llangan. Masalan: Fahmlab bo'sqini ikki zabardast, yetushubkim ko'chiga bo'ldi payvast (A, 38).

Qo'l, dasta va to'p so'zlari o'zaro sinonim bo'lib, otryad degan ma'noni anglatadi. Masalan: Umuro va sipahdorlarni o'z tumanot va qo'shunoti bila qo'l-qo'l va dasta-dasta qilib (FI, 420 b). Shag'ol mahramning dastasidan ikki kishi darajai shahodatga yetti (FI, 297 a). Yetib bordi Qaro Sartib to'fig'a (A, 44).

Qo'shinning o'ng tomonini burong'or, chap tomonini esa juvong'or deyilgan. Masalan: Burong'orda Sulton Mahmudxonni muqarrar qildi, juvong'orda Ibrohimbiy mang'itni nomzod qildi (MT, 172 a). Og'aday Bahodir otasining buronhor cheriki bila xonning juvong'orig'a urub urushur erdi (FI, 93 b). Ba'zan shu ma'noda chab va rost so'zlari ham qo'llangan: Sipohning chab va rostin orasta qildi (TS, 424 b).

Belgilangan vazifasiga ko'ra, qo'shin quyidagi turlarga bo'lingan: yasovul, katovul, surdovul, qarovul, hirovul, irovul, ilg'or, yazak. Ko'rinadiki, yuqoridagi terminlarning aksariyati -vul affiksi bilan yasalgan. E. V. Sevortyan bu affiks turkiy tillarga mo'g'ul tilidan kirib o'zlashgan, degan fikrni aytadi [4; 238]. Prof. A. G'ulomovning fikricha, mazkur affiks -g'u va -l formalaridan tashkil topgan [5; 69]. Prof. E. V. Sevortyan V. Bangning fikrini keltirib, -vul affiksi keyingi davrlarda faollashib, armiya va xon saroyidagi mansab va unvonni ifodalash uchun xizmat qilgan, deydi [5; 238-245]. Haqiqatan ham, -vul affiksi ko'pincha amal-mansabni bildiruvchi ot yasagan. Shu bilan birga, u qo'shin turini anglatuvchi so'z va terminlar yasash uchun ham xizmat qilgan.

Yasovul termini mo'g'ulcha yasa o'zagidan hosil bo'lib, xonning qonun va buyruqlarining bajarilishini nazorat qilib boruvchi askarlar ma'nosini bildiradi [6; 329-333]. Bu so'zning sinonimi katovul bo'lib, har ikkalasi parallel qo'llanadi: Yasovul va katovul birla o'rtag'a olib (AS, III b). Yasovul so'zi tojik va rus tillariga ham kirib o'zlashgan [7; 253-254].

Surdovul — kishilarni askarlikka yoki biror majburiy ishga to'plash, shuningdek, o'z yurtidan ko'chirilgan uyliklarni kuzatib borish uchun xizmat qiladigan otryaddir. Bu termin haydamoq, surmoq ma'nosidagi surmoq fe'lidan yasalgan (qiyos qiling: sur-gu-n). Masalan: Alar izig'a surdovullar qo'yub (TS, 194 b). Musobey elga surdovul yuborib, ikki yuz kishi yig'naldi (FI, 97 a).

Qarovul — qo'shından oldinroq yurib, dushman kuchlari haqida ma'lumot olib keluvchi qism, kuzatuvchi otryad. Masalan: Qarovullar Qizil Rabotg'acha kuzatib borib, Buxoro cherikidin xabar bo'lmadi (FI, 222 a). Bir pora cherik bila qarovul yo'sinida ilgari yubordi (TS, 106 a).

Hirovul va irovul so'zlari qarovulning sinonimi bo'lib, ularning yasalishi bir xildir: qarovul o'zbekcha **qara** fe'lidan, hirovul va irovul esa mo'g'ulcha **xara** // **xiru** fe'lidan yasalgandir [8; 186]. Masalan: Abdulla inoqni o'n to'rt ulug' cheriki bila hirovul qilib ilgari yubordi (TS, 193 b). Irovul bila yurub chapovul qilur erdi (FI, 51 b). Xo'jaquli qushbegi degan amirin o'zig'a taalliq sipohi bila irovul qilib ilgari yuborib erdi (FI, 60 a).

Ilg'or termini ham qo'shinning oldingi qismi, avangard ma'nosida qo'llangan. Masalan: Ba'zi chovdar alomoni bila ilg'or yo'sunlug' yotib erdi (GD, 194 a). Alarning izidin ilg'or qildilar (RS, 58 b).

Yazak so'zi tojikcha bo'lib, kecha qorovuli, qo'shinning oldingi qismini kuzatib boruvchi otryad ma'nosini bildiradi. Masalan: Mo'tabar kishilardin yazak aylanturub qal'adorlig' ko'rguzdilar (TS, 195 a).

XIX asr manbalarida yana to'xtavul (gvardiya), tutqavul (xazinachi), tuqsavul (bayroqdor) kabi **-vul** affiksi bilan yasalgan harbiy terminlar ham uchraydi [9; 207]. Qarshi tomonni dushman, yog'i, yov, adu, xusamo, muxolif kabi so'zlar bilan ataganlar.

Dushman so'zi forscha bo'lib, XIX asr o'zbek tiliga oid manbalarda ancha keng qo'llangan. Masalan: Dushman qonidin serob qilsak (TS, 172 a). Qilib dushman ahli sari hamla fosh (TS, 148 b).

Yog'i so'zi omonimik xususiyatga ega bo'lib, birinchidan, qadimgi turkiy tilda qo'llanib kelgan dushman ma'nosidagi turkcha so'z bo'lsa, ikkinchidan, isyonkor, sarkash, buzg'unchi ma'nolaridagi forscha-tojikcha so'zdir. Bu so'z o'rganilayotgan davr tilida har ikkala ma'noda ham qo'llangan: Ul viloyat ahli uch martaba yog'i bo'ldilar (MT, 54 b). Chun Gurdiston qizioboshi taka jamoasi bila yog'i erdi (GD, 168 b). Ul hazrat hamul jamoani dushman va yog'i faraz etib (ShI, 84 a).

Turkcha **yog'iy** so'zining **yov** formasi o'zbek tili tarixining so'nggi davrlarida qo'llana boshlagan bo'lib, XIX asr manbalarida ham qisman uchraydi. Masalan: Bul qattig' yovdur (AS, 121 b). Muborizlarg'a yov kelturmayin tob (FI, 329 a). Beshariq xalqi ham yovlig' og'oz qilib (TS, 169 b).

Adu, a'do, xaom, xusamo, muxolif, ag'yor so'zlari arab tilidan kirib o'zlashgan bo'lib, dushman va yog'i so'zlari bilan sinonim sifatida qo'llangan. Masalan: Adusig'a zohir qilib qasdi jon (GD, 69 b). Topib qal'a ahli adug'a zafar (GD, 210 b). Moli adu xaylig'a toroj o'lur (FI, 287 b). Ul sargashta a'do va davlatbargashta xusamo Qo'ng'iroq qo'rg'onig'a borib (TS, 192 a). Savashurdi base ag'yor birla (A, 39). Muxoliflar ro'ygardon bo'lub (TS, 171 b).

****"Lug'ati salos"***da yuqoridagi sinonimlar she'riy yo'l bilan quyidagicha berilgan:

Adu — dushman, yog'i, g'ayr, ul digar, yot,

Xalil ham xabb — suyuklu, do'st, ey zot (LS, 13).

Mufsid, inod ahli, tog'iy, boqiy, yog'iy so'zlari isyonkor, sarkash, buzg'unchi va bo'yinsunmoqchi degan ma'nolarda qo'llangan. Bularning dastlabki ikkitasi arabcha, qolganlari esa forscha so'zlardir. Masalan: Tarokima mufsidlaridin yumroli xalqining orasig'a bormish erdi (GD, 49 b). Bor erdi Orol aro amiri, tog'iy edi-yu, sharorat angiz (FI, 402 b). Ahli inod (FI, 406 a).

Josus so'zi razvedkachi va shpion ma'nolarida qo'llangan. Masalan: Josuslar xabar kelturdilarkim (RS, 171 b). Qarovullar ul josusni tutub (TS, 202 b). A'do tarafidin kelgan **josuslardin** bir kishini o'ldurub, ikkisin tirik tutub kelturdilar (TS, 450 a). ****"Muntaxab-ul-lug'ot"***da josus so'ziga shunday izoh berilgan: **"Josus — ahvol va axborni taravvud va justuju qilg'uchi"** (ML, 37 a). So'ngra Alisher Navoiyning **"Farhod va Shirin"** dostonidan quyidagi baytni keltiradi:

Xabar Xisravg'a yettikim rasuli,

Rasuli yo'qki, josusi fuzuli (ML, 37 b).

Ayrim hollarda razvedkachi ma'nosida **sinchi** so'zi ham ishlatilgan. Masalan:

Kengash birla ancha elchi yuborsak,

Bahona elchi teb, sinchi yuborsak (A, 37).

Dushman askarlaridan qo'lga tushgan kishini **asir** va **tutsoq** deganlar. Masalan: Bisyor asirni dastgir qilib (TS, III b). Muhammad Nazar shayxni tutsog' yo'sunluq olib ko'chtilar (FI, 352 b). Shohmurod beyning tutsoqig'a tushub, tadbir bila andin qutulg'oni (TS, 73 a). Ba'zan tojikcha **bandi** so'zi ham ishlatilgan. Masalan: Bir necha beylari bandi bo'lub to'shti (AS, 130 b).

Biror ma'lumot olish maqsadida dushman askarlaridan tiriklay qo'lga tushirib keltirilgan asirni **til** deb ataganlar. Masalan: Yigirma yigitni til tutmoq uchun daryodin o'tkazib Buxoro jonibig'a yo'lladi (TS, 432 b). Yamutdin til tutmoqg'a piyoda ozim bo'ldi (GD, 139 b).

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa qilib aytganda, XIX asrga oid yozma manbalar tilida jami 100 dan ortiq harbiy so'z va termin qo'llangan bo'lib, ularning 40 tasi o'zbekcha-turkcha, 27 tasi forscha-tojikcha, 10 tasi mo'g'ulcha-turkcha va 3 tasi rus tili orqali kirgan internatsional so'zlardir. Qayd etilgan so'zlarning ayrimlarigina hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida qo'llanadi, xolos (urush, jang, qo'shin, askar, yov, dushman, asir, til, miltiq, to'p, to'pponcha, zambarak, bayroq). Qolganlari esa butunlay iste'moldan chiqqan. Aksincha, ularning o'rniga hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida rus va G'arbiy Yevropa tillaridan o'zlashgan yuzlab yangi harbiy terminlar qo'llanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Иванов П. П. *Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX в.)*. – М., 1958. – С. 133, 161.
2. Орловская М. Н. *Имена существительные и прилагательные в современном монгольском языке*. – М., 1961. – С. 30–31.
3. Радлов В. В. *Опыт словаря тюркских наречий*. – Т. II, ч. I. – СПб., 1899. – С. 635.
4. Севортян Э. В. *Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке. Опыт сравнительного исследования*. – М.: Наука, 1966. – С. 238.
5. Гулямов А. Г. *Проблемы исторического словообразования в узбекском языке. Аффиксация*: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1955.
6. Будагов Л. *Сравнительный словарь турецко-татарских наречий*. – Т. II. – СПб., 1871. – С. 329–330.
7. Фарҳанги забони тоҷикӣ. – Т. II. – М., 1969. – С. 636; Сороколетов Ф. П. Указ. соч. – С. 253–254.
8. Сыдыков С. *Монгольско-киргизские языковые параллели*: дис. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1967. – С. 149; Будагов Л. Указ. соч. – Т. I. – С. 186.
9. Терентьев М. *Грамматика турецкая, персидская, киргизская и узбекская*. Кн. 1. – СПб., 1875. – С. 207.